



ALIMENT DA'VOLARINI QO'ZG'ATISH VA SUDDA KO'RIB CHIQISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Teshayeva Zuhra Sherbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti,

Email: zuhrateshayeva2002@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada aliment da'volarini qo'zg'atish tartibi hamda ushbu ishlarni sudda ko'rib chiqishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Oila kodeksi va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari asosida aliment to'lash majburiyatining yuzaga kelishi, sudga murojaat qilish tartibi, aliment miqdorini belgilash mezonlari yoritib beriladi. Maqolada aliment bilan bog'liq ishlarni yanada samarali yuritish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: aliment majburiyatlari, aliment miqdori, da'vo, sud, voyaga yetmagan bolalar, oila, ta'minot, aliment oluvchi, aliment to'lovchi.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется порядок возбуждения алиментных исков, а также правовые механизмы рассмотрения этих дел в суде. На основании Гражданского процессуального кодекса Республики Узбекистан, Семейного кодекса и других соответствующих законодательных актов освещаются вопросы возникновения обязанности по уплате алиментов, порядок обращения в суд, критерии определения размера алиментов. В статье также приведены предложения и рекомендации, которые служат для более



эффективного ведения дел, связанных с алиментами, и повышения правосознания граждан.

Ключевые слова: алиментные обязательства, сумма алиментов, иск, суд, несовершеннолетние дети, семья, обеспечение, получатель алиментов, плательщик алиментов..

ANNOTATION

The article analyzes the procedure for filing alimony claims, as well as the legal mechanisms for hearing these cases in court. On the basis of the code of Civil Procedure of the Republic of Uzbekistan, the family code and other relevant legislative acts, the criteria for the occurrence of the obligation to pay alimony, the procedure for filing a lawsuit, the determination of the amount of alimony are highlighted. The article also provides proposals and recommendations that serve to more effectively conduct alimony-related cases and increase the legal consciousness of citizens.

Key words: alimony obligations, amount of alimony, claim, Court, minor children, family, provision, alimony recipient, alimony payer.

Hozirgi davrda ijtimoiy adolat va bolalarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan aliment majburiyatlaridan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha fuqarolik protsessi o'ziga xos huquqiy va protsessual xususiyatlarga ega bo'lgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aholi farovonligini ta'minlash, voyaga yetmagan shaxslarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, ota-onalik mas'uliyatini real asosda amalga oshirish borasida aliment bilan bog'liq nizolarni sud tartibida samarali hal etish muhim huquqiy vazifa sifatida qaralmoqda.

9-iyul 2016-yildagi 11-sonli OSPQda voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlarni sudda ko'rib chiqish tartibi keltirib o'tilgan[1]. Unga ko'ra voyaga yetmagan bolalarga



aliment to‘lash haqida ota-ona o‘rtasida o‘zaro kelishuv bo‘lmaganda, shuningdek, aliment ixtiyoriy tartibda to‘lanmaganda hamda ota-onadan birortasi ham aliment undirish to‘g‘risidagi da‘vo bilan sudga murojaat qilmagan hollarda, voyaga yetmagan bolalariga ta‘minot berish majburiyatini ixtiyoriy tartibda bajarmagan ota yoxud onadan aliment undirish haqidagi da‘vo bilan voyaga yetmagan o‘n to‘rt yoshga to‘lgan bola murojaat qilishi mumkin. Voyaga yetmagan bolalariga ta‘minot berish majburiyatini o‘z ixtiyori bilan bajarmagan ota yoki onadan bola alohida tartibda yashagan hollarda, voyaga yetmagan o‘n to‘rt yoshga to‘lgan bola ota yoxud onasiga yoki ota-onasining har ikkoviga ham da‘vo taqdim qilishi huquqiga ega bo‘ladi. Ya‘ni 14 yoshga to‘lgan ammo voyaga yetmagan bola ota onasidan aliment olish uchun da‘vo arizasi bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalarning ta‘minoti uchun aliment vasiylik va homiylik organlari, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yetim bolalar uchun muassasalar, shuningdek, prokuror da‘vosiga ko‘ra, sudning hal qiluv qaroriga asosan undirilishi qonunda keltirib o‘tilgan. Ammo amaliyotda aliment to‘lovlarini undirish yuzasidan bir qancha muammolar mavjud. Masalan eng ko‘p uchraydigan muammo, agar ota yoki ona ishsiz bo‘lsa yoxud aliment to‘lamaslik uchun yashirincha faoliyat olib borayotgan bo‘lsa, aliment undirish muddati uzayib ketadi va murakkablashadi. Aliment undirish bo‘yicha prokuror bolaning huquqlari buzilganda da‘vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin. qonunchiligimizni yanada takomillashtirish hamda ota-onasiz bolalarning huquqlarini himoya qilish uchun prokuror monitoringini joriy etish mumkin. Ya‘ni prokuror har 3 oyda ota-onasiz bolalarning aliment to‘lovlarini tekshirishi kerak. Prokurorning vazifa majburiyatlarining ko‘pligini hisobga olgan holda shunday tizim yaratish lozimki, ya‘ni shunday platforma ishlab chiqish kerakki, unda o‘sha hududga biriktirilgan prokurorlarga o‘sha hududda aliment oluvchi bolalarni ro‘yxati hamda ta‘minoti ko‘rinib turishi lozim.



Oila kodeksining 81-moddasi 2-qismida, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z farzandiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmasligi keltirib o'tilgan. Yani, ota-onalik huquqidan mahrum bo'lsa ham, ota yoki ona o'z bolasi uchun aliment to'lashi zarur [2]. Sud jarayoni davomida ota-onalik huquqidan mahrum qilinishida bolaga aliment undirish masalasi hal qilinmagan bo'lsa, aliment undirish uchun vakolatli shaxs da'vo bilan murojaat qilishi mumkin. Aliment miqdori ota yoki onaning moddiy hamda oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Voyaga yetmagan bolalarga o'rtacha daromad darajasiga ega bo'lgan to'lovchining oylikdagi ulushlarida aliment undirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotida ko'pgina vaziyatlarning kelib chiqishi ota-onaning ish haqiga ulushlarda aliment undirilishi zarur. Bu holatda Oila kodeksi sudga voyaga yetmagan bolalarga qat'iy summada aliment belgilash imkoniyatini beradi. Aliment miqdorining qat'iy summada belgilanishi aliment to'lash shart bo'lgan ota-onaning ish haqi va boshqa daromadi doimo bir xilda bo'lmasa, yoki o'zgarib tursa yoxud daromadining ma'lum bir qismini natura tarzida oladigan bo'lsa, daromaddan ulush tarzida aliment undirish imkoniyati mavjud bo'lmasa, shuningdek ota-ona rasman belgilangan ish haqi va daromadga ega bo'lmasagina kelib chiqishi mumkin. Alimentning bolaga qat'iy summada to'lab borilishi bolaning ta'minotida barqarorlikni ta'minlaydi. Qat'iy summada belgilangan aliment miqdori har oyda pul ko'rinishda to'lanadi [3].

Farzandning ta'minot olish masalasini tahlil qilib chiqamiz. Agar bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilsa, shuningdek ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot berish bo'yicha majburiyatini bajarmasa, bola o'z huquqini himoya qilinishini so'rab, vakolatli davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli. Bunday huquq ota-onalik huquqi suiiste'mol



qilinganda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday tartibdagi murojaatlar bola to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagani sababli e'tiborsiz yoki ko'rib chiqmasdan qoldirilishi mumkin emas [4]. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini o'z ixtiyoriga ko'ra bajarmagan ota yoki onadan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudi Plenumining 2016-yil 29-iyundagi "Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida bu borada tegishli tushuntirishlar berib o'tilgan. Voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va boshqa daromadlarining bir bola uchun $\frac{1}{4}$, ikki bola uchun $\frac{1}{3}$, uch hamda undan ortiq bola uchun $\frac{1}{2}$ miqdorida undiriladi, ammo har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmashligi zarur. Bugungi kunda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 1 155 000 so'm hisoblanadi. Shunda 26,5 foizi 306 075 so'mni tashkil etadi. Ya'ni undiriladigan aliment miqdori har bir bola uchun 306075 so'mdan kam bo'lishi mumkin emas.

Alimentlar to'lovchining mablag'lari hisobidan undiriladi. Ushbu mablag'larga quyidagilar kiradi:

- 1) Daromadlar;
- 2) Kredit muassasidagi hisob raqamda mavjud bo'lgan pu mablag'lari;
- 3) Fuqarolik huquqiy shartnomalar asosida tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarga berilgan pul mablag'lari, ushbu holatda mulk huquqini o'tishini nazarda tutadigan shartnomalar mustasno hisoblanadi;
- 4) Aliment to'lovchining har qanday turdagi boshqa mol-mulki [5]



Ota-ona farzandi voyaga yetgan bo'lsa ham, ammo mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtoj bo'lsa unga ta'minot berishga majbur hisoblanadi. Bu ta'minot o'zaro kelishuv yoki sud tartibida amalga oshiriladi. Aliment miqdorini hisobga olishda aliment to'lovchining oilaviy va moddiy ahvoli inobatga olinib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi. Ya'ni aliment to'lovchining moddiy ahvoliga qarab aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek aliment to'lovlari o'zaro kelishuv asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv – bu yosh institutlardan biri hisoblanadi. Ushbu kelishuvni tuzish imkoniyati amaldagi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida keltirib o'tilgan. Yuridik adabiyotlarda alimentlar to'g'risidagi kelishuv tushunchasi keng qo'llanilishiga hamda doimiy ravishda har xil jihatlarida ishlatilishiga qaramay, uni umumiy talqini mavjud emas. Masalan, S.P. Grishaeva, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv bu aliment to'lashga majbur bo'lgan shaxs va ularni oluvchi o'rtasida aliment to'lashning miqdori, shartlari va tartibi to'g'risida notarial tasdiqlash shart [6] deb ta'riflaydi.

Aliment to'lash to'g'risida notarial tasdiqlangan kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega hisoblanadi. Tuzilgan hujjat qonuniy kuchga ega bo'lishi uchun u notarius tomonidan tasdiqlanishi shart. Agar aliment to'lashga majbur bo'lgan tomon o'z majburiyatlarini bajarmasa, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv ijro varaqasining rolini bajaradi – uning asosida majburiy ravishda mablag' yig'ish mumkin bo'lgan tashkilotning buxgalteriya bo'limi orqali ishlaydi. Notarial tasdiqlanganidan keyin aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv jamoat tomonidan tan olinadi [7].

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tomonlarning ixtiyoriga asosan 1 yilga, 5 yilga yoki boshqa muddatga tuzilishi mumkin. Kelishuvning amal qilish



muddati tugasa, unda bu aliment to‘lash bo‘yicha tomonlarning yangi kelishuv tuzishiga to‘siqlilik qilmaydi. Agar tomonlar bunday kelishuvni tuzishni istamasalar, unda qolgan vaqt davomida aliment to‘lashga majbur bo‘lgan shaxs unga yuklatilgan majburiyatni saqlab qoladi, shuningdek, tomonlar ushbu masalani sud tartibida ham ko‘rib chiqishlari mumkin. Kelishuvning amal qilish sharti sifatida umumiy muddat belgilanishi muhim ahamiyat kasb etmaydi, chunki muddat belgilanmasa, kelishuv alimentni to‘lash majburiyati muddati davomida tuzilgan deb hisoblanadi [8]. Xulosa qiladigan bo‘lsak, aliment majburiyatining mohiyati shunchaki "pul to‘lash" hisoblanmaydi, balki bu insoniyat, adolat va oilaviy barqarorlik tamoyillarini ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 29.07.2016-yildagi 11-sonli Oliy sudi Plenum Qarori
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2025-y., 03/25/1053/0317-son
3. Aliment majburiyatlari, monografiya/ B.R.Topildiyev, - “Afzalzoda books” nashriyoti, 2024.
4. Oila, bolalar va yoshlar huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari: o‘quv qo‘llanma / D.A. Anvarova. – T.: TDYU nashriyoti, 2023
5. Алексеев С.С. Алиментные обязательства. М.: БЕК, 2012. – 300 с
6. Гришаев С.П. Алиментные обязательства / Система ГАРАНТ, – 2011. – № 4. – С. 184 – 185.
7. Алексеева О.Г, Андропов В.В, Бухарбаева А.А. и др. Постатейный комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. 2014. С.
8. Babajanova D.I. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning asoslari // Maqola/Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – 3(2). – B. 613. – (E)ISSN:2181-1784. – SJIF 2023=6.131.